

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYANI
TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIK TA'MINOTNI
YARATISH**

Irgashev Ravshan Sobirjonovich

RISMI o'qituvchisi. Toshkent sh.

arxitektor_55@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21722400>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kreativ yondashuv asosidagi metodik ta'minotni yaratish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan 5–11-sinflar uchun “Loyihalash” fanining o'quv dasturi, “Loyihalash” (Loyihalash asoslari) (8–9-sinflar) hamda “Loyihalash” (Arxitekturaviy loyihalash) (10–11-sinflar) o'quv qo'llanmalari tahlil qilinib, ular asosida uzluksiz metodik ta'minot modeli taklif etildi. Mazkur model kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning), STEAM va Design Thinking yondashuvlarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashi, fazoviy tasavvuri, loyihalash faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metodik ta'minot, kreativ yondashuv, arxitektura dizayni, kasbiy kompetensiya, o'quv qo'llanma, o'quv dasturi, loyiha asosida o'qitish, STEAM, Design Thinking.

Аннотации. В данной статье рассматриваются вопросы разработки методического обеспечения, основанного на креативном подходе и направленного на развитие профессиональных компетенций учащихся направления «Архитектурный дизайн» специализированных школ искусств и школ-интернатов. В ходе исследования были проанализированы разработанные учебная программа по предмету «Проектирование» для 5–11 классов, учебное пособие «Проектирование (Основы проектирования)» для 8–9 классов и учебное пособие «Проектирование (Архитектурное проектирование)» для 10–11 классов. На их основе предложена модель непрерывного методического обеспечения. Данная модель основана на интеграции компетентностного, личностно-ориентированного подходов, технологии проектного обучения (Project Based Learning), STEAM-образования и методологии Design Thinking, что способствует системному развитию креативного мышления, пространственного воображения, проектной деятельности и профессиональных компетенций учащихся.

Ключевые слова: методическое обеспечение, креативный подход, архитектурный дизайн, профессиональная компетенция, учебное пособие, учебная программа, проектное обучение, STEAM, Design Thinking.

Abstract. This article discusses the development of methodological support based on a creative approach aimed at improving the professional competencies of students majoring in Architectural Design at specialized art schools and boarding schools. The study analyzes the curriculum for the subject “Design” developed for grades 5–11, the textbook “Design (Fundamentals of Design)” for grades 8–9, and the textbook “Design (Architectural Design)” for grades 10–11. Based on these educational resources, a continuous methodological support model was proposed. The model integrates the competency-based approach, learner-centered education, Project-Based Learning (PBL), STEAM education, and Design Thinking methodology

to systematically develop students' creative thinking, spatial imagination, design skills, and professional competencies.

Keywords: methodological support, creative approach, architectural design, professional competence, textbook, curriculum, Project-Based Learning, STEAM, Design Thinking.

Kirish qismi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hamda xalqaro ta'lim standartlariga mos metodik ta'minotni yaratish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijodiy yo'nalishlar, jumladan, arxitektura dizayni bo'yicha ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish, kreativ fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan hamda mustaqil loyiha faoliyatini amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, zamonaviy metodik ta'minotni yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Arxitektura dizayni fanining o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki kompozitsion fikrlash, fazoviy tasavvur, grafik savodxonlik, estetik did, muammolarni kreativ hal etish hamda loyiha faoliyatini amalga oshirish kompetensiyalarini ham talab qiladi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish esa an'anaviy darslik yoki alohida amaliy mashg'ulotlar bilan cheklanmaydi. Buning uchun uzluksiz va o'zaro integratsiyalashgan metodik ta'minotni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari uchun yaratilgan mavjud o'quv-metodik adabiyotlarda arxitektura dizayni yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan. O'quv materiallari ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning kreativ faoliyatini, loyiha asosida o'qitishni hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari cheklangan.

Mazkur tadqiqot doirasida aynan ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida arxitektura dizayni yo'nalishi uchun uzluksiz metodik ta'minot yaratildi. Uning asosini 5–11-sinflar uchun ishlab chiqilgan **“Loyihalash” o'quv dasturi**, **“Loyihalash asoslari” (8–9-sinflar)** hamda **“Arxitekturaviy loyihalash” (10–11-sinflar)** o'quv qo'llanmalari tashkil etadi. Mazkur metodik ta'minot o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, davlat ta'lim standartlari talablari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, nazariya va amaliyotni uzviy bog'lashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minotni ilmiy asoslash hamda uning tarkibiy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda kreativ yondashuvlar integratsiyasiga tayandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarini tizimli tahlil qilish, modellashtirish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallarning mazmuni kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Metodik ta'minotni yaratishda quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

uzluksizlik – 5–11-sinflar kesimida o'quv mazmunining ketma-ket rivojlanishini ta'minlash;


izchillik – nazariy bilimlardan amaliy loyiha faoliyatiga bosqichma-bosqich o'tish;

integrativlik – tasviriy san'at, muhandislik, axborot texnologiyalari va arxitektura fanlari mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish;

kreativlik – har bir mavzuda ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish;

amaliy yo'naltirilganlik – o'quvchilarni real loyihalash faoliyatiga tayyorlash.

Mazkur tamoyillar asosida ishlab chiqilgan metodik ta'minot o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini, mustaqil fikrlashini, raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasini hamda kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi.



1-rasm. Kreativ yondashuv asosida arxitektura dizayni yo'nalishining metodik ta'minot modeli (muallif ishlanmasi)

№	Metodik ta'minot elementi	Asosiy vazifasi
1	5–11-sinflar uchun o'quv dasturi	Ta'lim mazmuni va kompetensiyalarni belgilash
2	"Loyihalash" (8–9-sinflar)	Kompozitsiya, grafika va boshlang'ich loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish
3	"Loyihalash" (10–11-sinflar)	Turar joy va jamoat binolarini loyihalash bo'yicha kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish
4	Kreativ loyiha topshiriqlari	Muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish
5	QR-kodli multimedia resurslari	Mustaqil ta'lim va vizual o'rganishni qo'llab-quvvatlash
6	Baholash mezonlari va portfolio	Kasbiy kompetensiyalarni kompleks baholash

1-jadval. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik ta'minotning tarkibiy tuzilishi

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik ta'minotning mazmuni va tarkibiy tuzilishi.

Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mavjud metodik ta'minot o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun yetarli darajada uzviy tizimni shakllantirmagan. Amaldagi ayrim o'quv adabiyotlarida nazariy bilimlarga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsa-da, loyiha faoliyatini tashkil etish, kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha **uzluksiz metodik ta'minot tizimi** ishlab chiqildi. Ushbu metodik ta'minot o'zaro bog'langan bir nechta komponentlardan iborat bo'lib, ular yagona pedagogik tizim asosida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan metodik ta'minotning asosini 5–11-sinflar uchun tuzilgan **“Loyihalash” o'quv dasturi** tashkil etadi. Mazkur dasturda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, Davlat ta'lim standarti talablari hamda arxitektura dizayni yo'nalishining o'ziga xos jihatlari hisobga olinib, o'quv mazmuni oddiy grafik mashqlardan murakkab me'moriy loyihalash faoliyatigacha bosqichma-bosqich rivojlantirilgan. Natijada har bir sinfda egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar keyingi bosqich uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

Mazkur o'quv dasturining mantiqiy davomi sifatida 8–9-sinflar uchun **“Loyihalash asoslari”** o'quv qo'llanmasi yaratildi. Qo'llanmada kompozitsiya qonuniyatlari, grafik ifodalash usullari, rang tasviri, me'moriy kompozitsiya, hajmiy-fazoviy yechimlar, tektonika hamda boshlang'ich loyiha topshiriqlari tizimli ravishda yoritilgan. Har bir mavzuning amaliy mashg'ulotlar bilan boyitilgani o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qo'llanmaning muhim afzalliklaridan biri shundaki, unda an'anaviy nazariy materiallar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham qo'llanilgan. Jumladan, har bir mavzu QR-kodli multimedia resurslari bilan boyitilgan bo'lib, ular orqali o'quvchilar videoanimatsiyalar, 3D modellar, qurilish materiallari namunalari va zamonaviy arxitektura obyektlari bilan mustaqil tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish, vizual tafakkurini rivojlantirish hamda raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodik ta'minotning navbatdagi bosqichi sifatida 10–11-sinflar uchun **“Loyihalash”** o'quv qo'llanmasi ishlab chiqildi. Ushbu qo'llanmada turar joy va jamoat binolarining tipologiyasi, ularning funksional-rejaviy yechimlari, konstruktiv elementlari, me'moriy kompozitsiyasi, shaharsozlik talablari hamda me'yoriy loyihalash asoslari yoritilgan.


Shuningdek, har bir bob yakunida loyiha topshiriqlari, mustaqil ishlar va tahliliy savollar berilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Mazkur qo'llanmalarning o'zaro uzviyligi shundan iboratki, 8–9-sinflarda shakllantirilgan kompozitsion va grafik tayyorgarlik 10–11-sinflarda real me'moriy loyihalarni ishlab chiqish jarayonining metodik asosi sifatida xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar dastlab sodda kompozitsion topshiriqlarni bajarish orqali grafik savodxonlikni egallaydi, keyinchalik esa murakkab turar joy va jamoat binolarini loyihalashga bosqichma-bosqich tayyorlanadi.

Shu jihatdan ishlab chiqilgan metodik ta'minot o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida tavsiflanadi.

Ta'lim bosqichi	O'quv mazmuni	Asosiy metodlar	Shakllanadigan kompetensiyalar
5–7-sinflar	Grafik savodxonlik, kompozitsiya elementlari	Amaliy mashqlar, kuzatish, ijodiy topshiriqlar	Amaliy mashqlar, kuzatish, ijodiy topshiriqlar
8–9-sinflar	Kompozitsiya, rang, hajmiy-fazoviy yechimlar, boshlang'ich loyihalash	Kompozitsiya, rang, hajmiy-fazoviy yechimlar, boshlang'ich loyihalash	Kompozitsiya, rang, hajmiy-fazoviy yechimlar, boshlang'ich loyihalash
10–11-sinflar	Turar joy va jamoat binolarini loyihalash, me'yoriy loyihalash	Turar joy va jamoat binolarini loyihalash, me'yoriy loyihalash	Turar joy va jamoat binolarini loyihalash, me'yoriy loyihalash

2-jadval. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik ta'minotning kompetensiyaviy yo'nalishi



Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik ta'minotning asosiy afzalligi uning uzluksizlik tamoyili asosida yaratilganidadir. Metodik ta'minotning barcha tarkibiy qismlari – o'quv dasturi, o'quv qo'llanmalari, amaliy topshiriqlar, QR-kodli multimedia resurslari hamda kreativ loyihalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodik tizimda nazariy bilimlarni o'zlashtirish yakuniy maqsad sifatida emas, balki amaliy loyiha faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli har bir mavzu ijodiy topshiriqlar, amaliy mashqlar, loyiha ishlari hamda muammoli vaziyatlar bilan boyitilgan.

Metodik ta'minotning yana bir muhim jihati raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilganidadir. Xususan, o'quv qo'llanmalariga QR-kodli multimedia materiallarining kiritilishi o'quvchilarga mavzularni faqat matn va tasvir orqali emas, balki video, 3D modellar, animatsiyalar va virtual namoyishlar orqali ham o'rganish imkonini yaratadi. Natijada o'quvchilarning fazoviy tasavvuri, vizual tafakkuri va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Shuningdek, metodik ta'minotda loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning), STEAM ta'limi hamda Design Thinking elementlarining integratsiyasi o'quvchilarning real loyihalar ustida ishlash tajribasini shakllantiradi. Bunda o'quvchilar me'moriy muammoni tahlil qilish, bir nechta loyiha variantlarini ishlab chiqish, ularni baholash hamda eng maqbul yechimni tanlash bosqichlarini izchil amalga oshiradilar. Mazkur faoliyat esa ularda kasbiy tafakkur, jamoada ishlash madaniyati va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Mazkur metodik ta'minotning yana bir afzalligi uning moslashuvchanligidadir. Taklif etilgan metodik materiallardan nafaqat ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida, balki arxitektura, dizayn hamda muhandislik yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan boshqa ta'lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Bu esa metodikaning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va maktab-internatlarida arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan uzluksiz metodik ta'minotni talab etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 5–11-sinflar uchun “Loyihalash” o'quv dasturi, “Loyihalash” (8–9-sinflar) hamda “Loyihalash” (10–11-sinflar) o'quv qo'llanmalari yagona metodik tizim sifatida umumlashtirildi. Ushbu metodik ta'minot kompetensiyaviy yondashuv, loyiha asosida o'qitish, STEAM texnologiyasi hamda Design Thinking elementlari bilan boyitilgan bo'lib, o'quvchilarning kreativ fikrlashi, fazoviy tasavvuri, amaliy loyiha faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur metodik ta'minotning amaliy ahamiyati shundaki, u o'quvchilarning nazariy bilimlarini real loyihalash faoliyati bilan uzviy bog'laydi, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlaydi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, metodik ta'minot arxitektura dizayni yo'nalishi bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Mazkur maqolada ishlab chiqilgan metodik ta'minotning nazariy asoslari va tarkibiy tuzilishi yoritildi. Uning ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash, tajriba-sinov ishlari orqali amaliy qo'llash natijalarini baholash hamda metodikaning pedagogik samaradorligini statistik tahlil qilish tadqiqotning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi.

Arxitektura dizayni yo'nalishi uchun **5–11-sinflarni qamrab oluvchi uzluksiz metodik ta'minot tizimi** ilmiy asoslandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan o'quv dasturi va ikki bosqichli o'quv qo'llanmalar yagona kompetensiyaviy tizim sifatida integratsiyalashtirildi.

Kreativ yondashuv, Project Based Learning, STEAM va Design Thinking texnologiyalarini uyg'unlashtirgan **mualliflik metodik ta'minot modeli** taklif etildi.

O'quv jarayoniga QR-kodli multimedia resurslari va amaliy loyiha faoliyatini integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2018). O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi – 2030 yilgacha.
2. Shoniyozov, A. (2019). Arxitektura va dizayn asoslari.
3. Umarova, N. T. (2020). "Arxitektura dizaynida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish: nazariy asos va amaliyot." O'zbekiston san'ati va dizayn jurnali, 4(3), 45-52.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son qarori. (2020).
5. Kurbanov, U., Qodirova, S. (2022). "Maktab ta'limida arxitektura va dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish tajribalari." Arxitektura va qurilish ilmiy jurnali, 5(1), 28-35.

Xorij adabiyotlari.

1. Benedikt, M. (1984). For an Architecture of Reality. New York: Lumen Press.
2. Salingaros, N. A. (2006). A Theory of Architecture. Solingen: Umbau-Verlag.
3. Vittone, J. (2021). "Why Architectural Education Matters: A Guide for Students and Educators." Journal of Architectural Education.

Internet saytlar.

1. <https://art-academy.uz/>
2. <https://ridm.uz/>
3. <https://rismi.uz/>
4. <https://edu.uz>
5. <https://www.archdaily.com>
6. <https://www.dezeen.com>